

## **KLINIK ATAMALARDA LOTIN TILI: XALQARO STANDART VA AMALIY AHAMIYATI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17899401>

**Mualliflar: Norqobilova Nurshoda Raxmatillayevna**

*TDTU stomatologiya fakultet 1-kurs talabasi*

*E-mail: [nurshodanorqobilova@gmail.com](mailto:nurshodanorqobilova@gmail.com)*

*Tel: +998952360622*

**Musurmonov Jamoliddin Faxriddin o'g'li**

*TDTU Davolash ishi fakulteti 2-kurs talabasi,*

*E-mail: [jamoliddin216624@gmail.com](mailto:jamoliddin216624@gmail.com)*

*Tel: +998941120624*

**Ilmiy rahbar: Sayfullayeva Lola Sobitovna**

*Toshkent davlat tibbiyot universiteti*

*Lotin tili va xorijiy tillar kafedrasida katta o'qituvchisi*

*E-mail: [lolasayfullayeva133@gmail.com](mailto:lolasayfullayeva133@gmail.com)*

*Tel: +998909976700*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada klinik atamalarda lotin tilining xalqaro standart sifatidagi o'rnini va amaliy ahamiyati keng o'rganilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, lotin terminlari anamnez yig'ish (*anamnesis*), tashxis qo'yish (*diagnosis*), retsept yozish (*prescriptio*), jarrohlik protseduralari (*incisio, resectio, sutura*), laboratoriya ko'rsatkichlari (*hemogramma, coagulatio, glycaemia, WBC, PLT*) va patologik jarayonlarda (*inflammatio, neoplasma, thrombosis*) keng qo'llaniladi. Talabalar lotin terminologiyasini bilgan holda kasalliklarni tez va aniq aniqlash, laboratoriya natijalarini to'g'ri talqin qilish va shifokorlar o'rtasida samarali muloqot qilish imkoniga ega bo'ladi. Shu bilan birga, ICD-10 va ICD-11 kodlash tizimida kasallik nomlarining 85% lotin ildizlariga asoslanganligi xalqaro standartning ahamiyatini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, lotin atamalarini bilish talabalarning diagnostika aniqligi 30-35% ga oshishini, retsept yozishdagi xatoliklarni 22% dan 7% ga kamaytirishini va laboratoriya natijalarini talqin qilish tezligini 25% oshirishini ko'rsatdi.

### **Kalit so'zlar**

Lotin tili, klinik atamalar, tibbiyot, diagnostika, retsept, laboratoriya, jarrohlik, ICD, patologiya, talaba

## LATIN TERMINOLOGY IN CLINICAL MEDICINE: INTERNATIONAL STANDARD AND PRACTICAL SIGNIFICANCE

### Annotation

This article examines the role of Latin in clinical terminology as an international standard and its practical significance. The study demonstrates that Latin terms are widely used in history taking (*anamnesis*), diagnosis (*diagnosis*), prescription writing (*prescriptio*), surgical procedures (*incisio, resectio, sutura*), laboratory parameters (*hemogram, coagulation, glycaemia, WBC, PLT*), and pathological processes (*inflammatio, neoplasma, thrombosis*). Knowledge of Latin terminology helps students accurately and quickly identify diseases, correctly interpret laboratory results, and communicate effectively with colleagues. Moreover, 85% of disease names in ICD-10 and ICD-11 classifications are based on Latin roots, emphasizing the importance of international standards. The study results indicate that knowledge of Latin terminology increases diagnostic accuracy by 30–35%, reduces prescription errors from 22% to 7%, and improves laboratory result interpretation speed by 25%.

### Keywords

Latin language, clinical terminology, medicine, diagnosis, prescription, laboratory, surgery, ICD, pathology, students

## ЛАТИНСКИЕ КЛИНИЧЕСКИЕ ТЕРМИНЫ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ СТАНДАРТ И ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ

### Аннотация

В статье исследуется роль латинского языка в клинической терминологии как международного стандарта и его практическое значение. Результаты показывают, что латинские термины широко применяются при сборе анамнеза (*anamnesis*), постановке диагноза (*diagnosis*), выписке рецептов (*prescriptio*), хирургических процедурах (*incisio, resectio, sutura*), лабораторных показателях (*hemogramma, coagulatio, glycaemia, WBC, PLT*) и патологических процессах (*inflammatio, neoplasma, thrombosis*). Знание латинской терминологии позволяет студентам точно и быстро определять болезни, правильно интерпретировать лабораторные данные и эффективно общаться с коллегами. 85% названий болезней в классификациях ICD-10 и ICD-11 основаны на латинских корнях, что подтверждает значимость международного стандарта. Результаты показывают, что знание латинских терминов повышает точность диагностики на 30–35%, снижает ошибки при

выписке рецептов с 22% до 7% и ускоряет интерпретацию лабораторных данных на 25%.

### **Ключевые слова**

латинский язык, клиническая терминология, медицина, диагностика, рецепты, лаборатория, хирургия, ICD, патология, студенты

### **Introduction**

Tibbiyot fanining izchil rivojlanishida ilmiy terminologiyaning yagona va barqaror tizimda shakllanishi muhim omil hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, lotin tili ming yillar davomida tibbiy atamalarni yaratish va standartlashtirishda asosiy manba vazifasini bajarib kelmoqda. Lotin tilining grammatik tuzilishi barqarorligi, fonetik tizimining o'zgarishligi va ilmiy fikrni aniq ifodalay olishi uni tibbiyotning xalqaro tili sifatida qo'llashga imkon beradi. Zamonaviy klinik amaliyotning barcha bosqichlari - anamnez yig'ish, tashxis qo'yish, retsept yozish, jarrohlik terminlari, laborator ko'rsatkichlarni belgilash, patologik jarayonlarni tasniflash va farmatsevtik birliklarni nomlash - lotin tiliga asoslanadi. Shuningdek, xalqaro dori nomlari, kasallik va sindromlarning o'rnatilgan terminologiyasi hamda ICD-10 va ICD-11 kabi xalqaro kasalliklar klassifikatsiyasida uchraydigan asosiy tushunchalar lotin ildizlariga ega. Lotin tilini puxta o'zlashtirish tibbiyot talabalariga klinik tafakkurni shakllantirish, ilmiy matnlarni to'g'ri talqin qilish, shifokorlar o'rtasida global axborot almashinuvida aniqlik va birxillikni ta'minlash imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — klinik atamalarda lotin tilining xalqaro standart sifatidagi o'rnini, tibbiyot ta'limi va amaliyotidagi amaliy ahamiyatini ilmiy asosda o'rganish, lotincha terminlarning tarkibiy xususiyatlari, ularning qo'llanish samaradorligi va klinik jarayonlardagi funksional rolini tahlil qilishdir.

### **Methods**

Ushbu tadqiqot uch bosqichda olib borildi. Birinchi bosqichda 60 dan ortiq ilmiy manbalar, jumladan *Nomina Anatomica*, *Nomina Histologica*, WHO INN va ICD-10/11 qo'llanmalar o'rganildi. Shu manbalar asosida lotin atamallari va ularning klinik amaliyotdagi ishlatilishi, shuningdek, prefiks va suffikslari tahlil qilindi. Bu bosqichda terminlarning grammatik tuzilishi va ularning kasallik, jarrohlik hamda laboratoriya jarayonlarida qo'llanishi aniqlangan.

Ikkinchi bosqichda klinik hujjatlar — 150 anamnez, 90 epikriz, 60 retsept va 40 laboratoriya natijasi — o'rganildi. Tadqiqot davomida lotin atamallarning aniqligi, qisqartmalar (*Rp.*, *M.f.*, *D.S.*, *Hb*, *WBC*, *PLT*, *Glc*) va ularning ma'nosi baholandi. Shu jarayonda jarrohlik, patologiya va laboratoriya protseduralarida ishlatiladigan terminlar tahlil qilindi, masalan *incisio*, *resectio*, *sutura*, *hemogramma*, *coagulatio*.

Uchinchi bosqichda 70 talaba va 35 shifokor ishtirokida so'rovnomma va kuzatuvlar o'tkazildi. Bu orqali talabalarning terminlarni tushunish darajasi va amaliy qo'llash ko'nikmasi baholandi. Shu bosqichda *Hyperten-sio*, *Neuro-pathia*, *Hepato-megalia*, *Appendectomy*, *Gastroenteritis acuta* kabi atamalar tahlil qilinib, ularning klinik ma'nosi talabalarga tushuntirildi. Natijada, tadqiqot metodlari lotin atamalarning klinik hujjatlarda ishlatilishini va talabalarning ularni tushunish va amaliyotda qo'llash darajasini aniqlash imkonini berdi. Shu bilan birga, prefiks va suffikslarning kasallik va protseduralarni tez tushunishda qanchalik muhim ekanligi tasdiqlandi.

### Results

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, lotin atamalarini klinik hujjatlarda va amaliyotda keng qo'llaniladi. Tahlil qilingan 150 anamnez, 90 epikriz, 60 retsept va 40 laboratoriya natijalarida anatomiya, patologiya va jarrohlik terminlarining ishlatilish darajasi yuqori bo'lgan. Masalan, jarrohlik protseduralarida *incisio*, *resectio*, *sutura*, laboratoriya natijalarida esa *Hb*, *WBC*, *PLT*, *Glc* kabi qisqartmalar deyarli barcha hollarda to'g'ri ishlatilgan. Talabalarning bilimni baholash natijalariga ko'ra, lotin atamalarini bilgan talabalar tashxis qo'yishda 30-35% tezroq harakat qilgan va retsept yozishda xatoliklar 22% dan 7% ga kamaygan. Shuningdek, laboratoriya natijalarini talqin qilish tezligi 25% oshgan. Klinik misollarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, *myocardialis infarctus* yurak mushagi infarkti, *hepatitis viralis* virusli gepatit va *fractura humeri* bilak suyagi singishini bildiradi. Jarrohlik amaliyotida *incisio appendicis* appendiksni kesishni, *appendectomy* esa appendiksni olib tashlashni anglatadi. Shu bilan birga, prefiks va suffikslardan foydalanish orqali kasallikning turi va joylashuvi tez aniqlanishi mumkin: masalan, *-itis* yallig'lanishni, *-algia* og'riqni, *-ectomy* olib tashlashni, *-osis* kasallik yoki degeneratsiyani bildiradi.

Ko'rsatkich	Talabalar lotin bilgan (n=35)	Talabalar lotin bilmagan (n=35)	Farq
Diagnostika aniqligi	92%	60%	+32%
Retsept yozishda xatolik	7%	22%	-15%
Laboratoriya natijalarini tushunish tezligi	25 ta/min	20 ta/min	+25%

### Discussion

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, lotin tili klinik tibbiyotda asosiy vosita sifatida qolmoqda. Terminlarning barqaror va aniq bo'lishi xatolarni kamaytiradi va shifokorlar o'rtasida samarali muloqotni ta'minlaydi. Talabalar morfemalarni – prefiks, ildiz va suffikslari – tushunganida kasallik mohiyatini tez va aniq tushunadi, shu bilan birga diagnostika jarayonida vaqtni tejashadi. Lotin atamalari ilmiy matnlarni o'qishda, dori nomlarini belgilashda, laboratoriya natijalarini talqin qilishda va retsept yozishda katta yordam beradi. Masalan, *pericarditis* yurak qopqog'i yallig'lanishini, *subhepaticus abscessus* jigar osti sohada abscessni, *nephrolithiasis* esa buyrak toshini bildiradi. Shu kabi misollar talabalarga terminlarning mazmunini tezroq tushunishga yordam beradi va klinik amaliyotni osonlashtiradi. Shuningdek, lotin atamalari xalqaro standartlarda bir xil ma'noni anglatadi, bu esa boshqa mamlakat shifokorlari bilan samarali kommunikatsiyani ta'minlaydi. ICD-10 va ICD-11 kodlash tizimida kasallik nomlarining 85% lotin ildizlariga asoslangan, bu esa terminlarning barqarorligini va xalqaro miqyosda tushunarligini tasdiqlaydi.

### Conclusion

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, lotin tili klinik tibbiyotda asosiy vosita sifatida qolmoqda va talabalarga amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda katta yordam beradi. Terminlar diagnostika, retsept yozish, jarrohlik va laboratoriya natijalarida aniqlikni ta'minlaydi, xatoliklarni kamaytiradi va klinik tafakkurini rivojlantiradi. Lotin atamalari shuningdek xalqaro standartlarga moslashishga yordam beradi, shifokorlar o'rtasida samarali kommunikatsiyani ta'minlaydi va ilmiy ishlarni tushunishda qulaylik yaratadi. Talabalar uchun lotin terminlarini bilish kasalliklarni tez va aniq aniqlash, laboratoriya natijalarini to'g'ri talqin qilish va retsept yozishda muhimdir. Shu bilan birga, prefiks va suffikslardan foydalangan holda kasallik turi va joylashuvini tez tushunish mumkin, bu esa amaliyot samaradorligini oshiradi. Xulosa qilib aytganda, lotin tili nafaqat tibbiyotning tarixiy merosi, balki zamonaviy klinik amaliyot va talabalarning tayyorgarligi uchun ham zarur vosita hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Musurmonov, J. F., & Sayfullayeva, L. S. (2025). *Farmatsevtik atamashunoslik*. Toshkent: Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15289181>
2. Musurmonov, J. F., Yo'ldosheva, C. I., & Sayfullayeva, L. S. (2025). *Lotin tili - inson tanasining lingvistik kodi va tibbiyotdagi universallik tamoyili*. *Latin American Journal of Education*, 5(6). <https://lajoe.org/index.php/LAJoe/article/view/125>

3. Musurmonov, J. F. O'g'li, & Israilova, M. N. (2025). *Lotin tilining zamonaviy tibbiy yozuvdagi roli va uning xalqaro standartlashuvdagi ahamiyati*. In *Proceedings of the International Conference on Medicine, Science, and Education* (Vol. 2, No. 5, pp. 85–90). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15558643zenodo.org>
4. Sayfullayeva, L. S., Usmonova, S. D., & Musurmonov, J. F. O'g'li. (2025). *Lotin tilining zamonaviy tibbiy ta'limdagi o'rni: Integrativ yondashuolar*. *International Conference on Interdisciplinary Science*, 2(12), 34–38. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17839393>  
<https://universalconference.us/universalconference/index.php/icms/article/view/6007>
5. Sayfullayeva, L., Ergasheva, M., & Musurmonov, J. F. O'g'li. (2025). *Farmatsevtik retseptlarda lotin tilining global standart sifatidagi o'rni*. *International Conference on Advance Science and Technology*, 2(5), 18–23. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17753135>  
<https://universalconference.us/universalconference/index.php/icast/article/view/5927>
6. Rashitova, J., Uralov, S., Soatmurotova, I., Sayfullayeva, L., & Musurmonov, J. F. O'g'li. (2025). *Medical terminology. The principles of formation of clinical terms in the Greek language. The deontological significance of medical terminology*. *International Scientific Innovation Research Conference*, 2(8), 46–51. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17780870>  
<https://universalconference.us/universalconference/index.php/isirc/article/view/5971>
- 7.
8. L.S. Sayfullayeva CHET TILLARI, LOTIN TILI VA TERMINOLOGIYA ASOSLARINI O'QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI
9. L.S. Sayfullayeva Lotin tilini o'qitish jarayonida axborot texnologiyalarining o'rni
10. Musurmonov, J. F. O'g'li. (2025, April 27). *Zamonaviy tibbiyotda kasallik nomlarining lotin tilidagi tuzilishi va klinik diagnostikadagi ahamiyati* [Certificate of publication]. *Acumen: International Journal of Multidisciplinary Research*. RB IF (Impact Factor): 10.41 / 2024.
11. Standring, S. *Gray's Anatomy: The Anatomical Basis of Clinical Practice*. 42nd Edition. Elsevier, 2020.
12. International Federation of Associations of Anatomists (IFAA). *Terminologia Anatomica*. Thieme, 2019.
13. International Federation of Associations of Anatomists (IFAA). *Nomina Histologica*. 2nd Edition, 2018.

14. World Health Organization (WHO). *International Nonproprietary Names (INN) for Pharmaceutical Substances*. WHO, 2021.